



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 3-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

**« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI » NOMLI
ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

**ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ГУМАНИТАРНОГО ПОДХОДА**

Бреславец Тамара Сергеевна

Андижанский кампус университета Туран магистр 1 курса

Аннотация: педагогическое мастерство и компетентность требуют от преподавателя необычайной силы, настойчивости, трудолюбия, стремления проводить исследования в новой ситуации, гибкости к новому коллективу, искренности, корректности и честности, острого интеллекта, умения сверять один инструмент с другим.

Ключевые слова: образовательная система, компетентность, педагог, профессиональная компетентность, человеческое достоинство, образовательная система

Модернизация системы непрерывного образования является одной из важнейших задач социально-экономического развития Узбекистана. Поэтому каждое учебное заведение Республики придает особое значение повышению качества подготавливаемых им кадров. В то время, когда в науке и производстве создаются нанотехнологии, создаются учебники нового поколения, внедряется рейтинговая система в образовании, контроль по различным направлениям, используются активные методы обучения и другая подобная организационная работа, будущее предполагает приобретение педагогическими кадрами знаний, умений и квалификации в соответствии с требованиями времени.

На пути совершенствования системы образования в нашем социально-экономическом развивающемся обществе подготовка квалифицированных кадров в академических лицеях, профессиональных колледжах, школах общего среднего образования повысила уровень необходимости повышения их компетентности. Это свидетельствует о том, что в настоящее время большое внимание следует уделять не только глубокому изучению теоретических знаний специалистов, отвечающих требованиям времени, но и подготовке специалистов с большими человеческими качествами, умеющих входить в оборот, в совершенстве владеющих своим делом. Особенно это требование современной эпохи в очередной раз доказывает, что учителя необходимо готовить как культурного человека, вооруженного высокими педагогическими навыками и современными технологиями повышения компетентности.

Известно, что модернизация системы непрерывного образования является одной из важнейших проблем социально-экономического развития Узбекистана. Поэтому каждое учебное заведение Республики

придает особое значение повышению качества подготавливаемых им кадров.

Стратегия проведения психолого-педагогических тренингов при подготовке педагогических кадров служит повышению профессионализма, духовного облика, интеллектуального потенциала педагогов, обеспечению преемственности и неразрывности между ступенями образования, исходя из текущего состояния духовно-просветительской работы. Потому что педагогическое мастерство и педагогическая компетентность служат средством определения индивидуально-квалификационных качеств субъекта, способствуют его творческому прогрессивному поиску, повышают успешность педагогического сообщества.

В современном мире, который развивается в направлении глобализации, быстрая адаптация государства к условиям международного конкурентного процесса является главным фактором его успешного и устойчивого развития. Главное преимущество высокоразвитых государств в этом – состояние системы образования – зависит от наличия возможностей для развития личности. Факторы, обеспечивающие устойчивый экономический рост государства сегодня и в будущем, также зависят именно от развития образовательной сферы и подготовки педагогических кадров.

В сегодняшнюю эпоху глобализации компетентность современных учителей отражается в следующем:

- гуманизм;
- коммуникабельность;
- профессиональная независимость, мастерство исполнения, эмоциональная устойчивость, творческий подход к своей работе;
- рациональное использование педагогических приемов и технологий;
- совершенствование техники речи, контроль над собственным звучанием, мимикой и осанкой, а также умение влиять на коллектив и личность;
- проблемы современной науки и производства, осведомленность о педагогических, информационных технологиях и технологиях высокого уровня, а также применение необходимых технологий в образовательном процессе и т.д.

Педагогическое мастерство и компетентность используются при определении профессиональных качеств, при выполнении конкретной задачи в процессе обучения, при присвоении описания профессии, при приобретении определенного уровня мастерства в образовательном процессе.

Педагогическое мастерство и компетентность требуют от учителя умения проводить исследования, применять профессионально – педагогические технологии, организовывать свою деятельность на научной основе. Поэтому, поскольку вопрос многогранной деятельности учителя и его способностей, отличного художника и целеустремленности, а также воспитания молодежи как гармоничной личности является одним из актуальных вопросов на уровне государственной политики, учителя должны приобретать педагогические навыки и компетентность.

Поэтому педагогическое мастерство и педагогическая компетентность - это не стандартный стиль работы для всех педагогов, а процесс, который происходит за счет работы каждого педагога над собой, его творческой работы.

Именно учитель должен достичь целей, которые в настоящее время ставятся перед образованием, организовать разнообразную деятельность учащихся, сделать их образованными, вежливыми, религиозными, трудолюбивыми, свободомыслящими, сознательными, компетентными людьми, свободомыслящими, преданными Родине, свободными от дурных идей.

Литература:

1. O.Asqarova, M.Nishonov, M.Xayitbaev —Pedagogika. T., —Talqin. 2008 y
2. A.To'xtaboyev, A.Eraliyev —Tashkiliy xatti-xarakatlar. Andijon, - Xayot. 2001 y
3. Combs, A. W. (1986). Person-Centered Education: A Humanistic Approach to Teaching. New York: Holt, Rinehart and Winston.
4. Rogers, C. R., & Freiberg, H. J. (1994). Freedom to Learn (3rd ed.). New York: Merrill.
5. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.

MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILI O'QITISHNING PEDAGOGIK
TAMOYILLARI.

Yuldasheva Umidaxon Maxmudovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish zaruriyati asoslab beriladi. Til va madaniyat o'zaro bog'liqligi, tilni o'rganish orqali boshqa millat vakillarining qadriyatlarini tushunish imkoniyati ko'rsatilgan. O'qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuv, kommunikativ metod va umumiy jismoniy reaksiya usuli (TPR) kabi yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ayniqsa, tinglash, harakatlar orqali o'rganish va bolalarning tabiiy nutq rivojlanish bosqichlariga asoslangan metodlar muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: chet tili, madaniyatlararo muloqot, kompetensiya, kommunikativ yondashuv, TPR usuli, ijtimoiy-madaniy yondashuv, til va madaniyat.

Аннотация: В статье обоснована необходимость формирования межкультурной коммуникативной компетенции при обучении иностранным языкам. Показана взаимосвязь языка и культуры, а также возможность понимания ценностей других народов через изучение языка. Рассматривается эффективность социокультурного подхода, коммуникативной методики и метода общей физической реакции (TPR). Особое внимание уделено важности восприятия на слух, обучения через движения и этапов естественного развития речи у детей.

Ключевые слова: иностранный язык, межкультурная коммуникация, компетентность, коммуникативный подход, метод TPR, социокультурный подход, язык и культура.

Abstract: This article justifies the necessity of developing intercultural communicative competence in foreign language teaching. It highlights the interconnection between language and culture, emphasizing how language learning provides insight into other nations' values. The effectiveness of sociocultural approaches, communicative methodology, and the Total Physical Response (TPR) method is analyzed. Special emphasis is placed on listening, learning through movement, and the natural stages of speech development in children.

Keywords: foreign language, intercultural communication, competence, communicative approach, TPR method, sociocultural approach, language and culture.

Til muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo'lib, uni egallash orqali biz madaniyatga tegishli olam manzarasini ham egallaymiz. Til bilishning o'zi aslida madaniyat belgisining bir ko'rinishidir. Barchamizga ma'lumki bizning buyuk bobokolonlarimiz ham qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergan. Shuning uchun ham, chet tilini o'qitishda kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirib borish nihoyatda muhim bo'lib, bu nafaqat chet tilini kerakli darajada chuqur o'zlashtirishga, balki turli mamlakatlar xalqlari o'rtasida keng miqyosli ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rnatishga ham samarali ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi. O'qitishning madaniy vositalari tilning tabiiy me'yorlarini o'zlashtirishga, o'rganilayotgan til sohiblarining an'analari va urf-odatlarini tushunishga, yot mentallik va til vositalarini o'rganishga yordam beradi. Ijtimoiy me'yorlar xushmuomalalik qoidalari, turli avlod, jins, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqot me'yorlari, jamiyatda qabul qilingan ayrim marosimlarning til orqali mustahkamlanishiga qaratilgani bois, madaniyatlararo muloqot kompetentligi turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotning lisoniy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chet tilini o'qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni tatbiq etish talabalarning chet tilni o'zlashtirishlarida faollashuviga olib keladi. Talaba o'zga xalqning milliy madaniyati va qadriyatlarini o'zlashtirishi jarayonida shuningdek, tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlarni ham mustahkamlaydi. Ingliz tili o'qitish metodikasining, umumiy, xususiy va maxsus tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda xorijiy tillarni maktabgacha ta'limda o'qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik. O'sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish, ingliz tili vositasida o'zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o'rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko'nikma hamda malakalar o'quvchilarni tarbiyalaydi. Bundan tasqari o'quvchilarni o'rganilayotgan tildan foydalanishga rag'batlantirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish, o'quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o'rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish, o'quvchilarda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini mustaqil va o'zaro aniqlab borish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarga o'z bilimlarini o'rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish va darslarni kompetensiyalar egallanishiga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida tashkil etish.

Tinglash tamoyili. Gapirishdan oldin tinglash. Gapirishga majburlamaslik kerak. Bolalar maqsadli ravishda tilni o'rganishning tabiiy usulidan o'tishlari kerak: avval ular tilni tinglaydilar va uni o'zlashtiradilar. Agar siz eshitilayotgan narsani tushunib, maqsadli tilning kognitiv xaritasini o'zlashtirsangiz,

gapirishga tayyorlik mavjud. Bolalar o'zlari so'zlarni ishlab chiqarishni boshlaydilar. Eshitishdan nutqqa qadar tranzaktsiyalar rivojlanishning bir necha bosqichlariga ega bo'ladi. Dastlab, bola faqat jismoniy harakatlar bilan, keyin esa "ha" yoki "yo'q" kabi oddiy bir so'zli so'zlar bilan eshitadi va reaksiyaga kirishadi. Kognitiv miya ishining ushbu bosqichlaridan so'ng gapirishga tayyorlik paydo bo'ladi.

Harakatlar orqali o'rganish. Tushunish talabalar jamoasining harakatlari orqali rivojlanishi kerak. Tadqiqotchilar o'rganuvchi tilning ko'plab grammatik tuzilmalari va yuzlab lug'at birikmalarini o'qituvchi tomonidan mohirlik bilan qo'llash orqali o'zlashtirish mumkinligini aniqladilar, deydi umumiy jismoniy reaksiya usuli asoschisi G.J.Asher. Ushbu usul dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llanilgan va juda katta fikr-mulohazalarga ega. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi, ko'plab kitoblar va maqolalar nashr etildi, shuningdek, kitobxonlarning ajoyib natijalari ko'rsatilgan video filmlar ishlangan. Bola o'z nutqini nutq ta'sirida va til so'zlariga ergashadigan harakatlar orqali o'rganadi. Nutqning, undan keyin tana harakatlarining kiritilishi talabaga ongning ko'p darajalari, jumladan fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantikaning bevosita ma'nosini hal qilish imkonini beradi.

**HAMKORLIK PEDAGOGIKASI VOSITASIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY
MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEXANIZMI**

Karimova Dilfuza Mahammadjonovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamkorlikda o'qitish texnologiyasi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, hamkorlik pedagogikasi vositasida o'quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash mexanizmi haqida turli xildagi mulohazalar ketirilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlikda o'qitish, an'anaviy ta'lim, kreativlik, jamoaviy ishlash.

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham etakchi o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi. Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchiyoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi. Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o'rganish natijalari mazkur sohada bir qator ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatdi. Xususan: – demokratik jarayonda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik; – o'quvchilar ijtimoiy faolligining o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayon tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilmaganligi; – o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faollashuvining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va omillari mavjud bo'lib, ular etarlicha o'rganilmaganligi; – o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Bu vazifani samarali amalga oshirishda ijtimoiy faol shaxs xususiyatlari va shartlari tarkib toptiriladigan shakl, vosita, usul va metodlarni izlab topish, o'z

navbatida «o'quvchi-yoshlar», «ijtimoiy faollik» tushunchalari mohiyatini chuqur tushunish, nazariy jihatdan ham, amaliy tomondan ham juda muhim masaladir. O'zbek tilining izohli lug'atida «yosh» so'ziga «1. Tug'ilgan vaqtdan boshlab yashab o'tkazilgan yillar jami; umr uzoqligi. 2. Inson yoki hayvon hayotidagi bosqich, davr, umr. Yoshlar tushunchasi esa navqiron yigit-qizlar» deya izohlangan YUqoridagi ta'riflarni umumlashtirib «o'quvchi-yoshlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik. O'quvchi-yoshlar – umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasbhunar kollejlari va akademik litseylarda ta'lim oluvchi navqiron yigit-qizlar guruhi. SHu o'rinda faoliyatning o'zini ham izohlash talab etiladi. Faollik negizida paydo bo'luvchi yangicha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, insongagina taalluqliligi tufayli u psixologiya fanida faoliyat deb yuritiladi. Faollikning shaxsga xos ko'rinishi sifatida faoliyat vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan farqlanadi. Har qanday faoliyat maqsad va natijalardan iborat jarayon ifodasi hisoblanadi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi va yashash sharti hisoblanadi. Faoliyat tushunchasi dunyoqarash tamoyili sifatida nemis klassik falsafasi rivojlangan davridan boshlab qaror topdi. Bu davrda Evropa madaniyatida shaxsning aql-idrok bilan ish ko'rishi, faolligi va tashabbuskorligining ko'p qirrali yo'nalishiga xos bo'lgan asosi va tamoyillari deb qarash uchun sharoit yaratildi. Bunday qarashni nemis faylasufi I.Kant boshlab berdi. Borliqdagi jonli mavjudotlarning o'ziga xos tarzda va muayyan yo'nalishda, ma'lum darajadagi kuch bilan xatti-harakatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar ular uchun faollik manbai vazifasini bajaradi. Psixologik manbalarga asoslanib fikr yuritadigan bo'lsak, «...ehtiyoj – jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart- sharoitlariga uning shularga tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shartsharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tarzida ifodalanadi». Inson faolligi esa ana shu ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Ehtiyojlar – organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlik. Faoliyat sohasiga qarab mehnatga, bilimga, muloqotlarga; ob'ektiga qarab moddiy, ma'naviy; sub'ektiga ko'ra yakka (shaxsiy), guruh, jamoaviy, ijtimoiy ehtiyojlar bo'lishi mumkin. Inson ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni madaniy jarayon bilan yaqinlasha borib shakllanadi. Chunki insonning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham bu muammoning turli jihatlarini pedagogika fanida tadqiq etib kelinadi. Inson o'zining ijtimoiy majburiyatlari, jamiyat oldidagi burchi, o'z mas'uliyatini tabiiy bir hol, o'z erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy bir qismi sifatida qabul qilgandagina ma'naviy barkamol shaxsga aylanadi. Insonning faolligi shaxs

sifatida shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan balki inson uni o'z xohishiga mos ravishda o'zgartiradi. Jamiyatning o'zi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi omillar – bularning hammasi shaxsning bunyodkorlikka asoslangan faoliyatining natijasidir. Faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo'lishi demakdir. Dunyoni o'zgartirar ekan, faol shaxs ayni paytda o'z qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtiradi. U shu asnoda o'zligini anglaydi, faol shaxs sifatida jamiyatda o'zini namoyon qiladi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayib boradi va shu bilan bir paytda mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan o'sishi yuz beradi. Shaxsning faoliyati ijtimoiy muhit va moddiy omillar ta'sirida shakllanadi. Faollik bo'lmagan joyda shaxs rivojlanmaydi va uning imkoniyatlari ro'yobga chiqmaydi. Shaxsning faolligi aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda tarkib topadi. Shaxs faolligining rivojlanish tendensiyalari mehnat, o'qish, o'yin, muloqot jarayonida amalga oshadi. Har bir inson jamiyat a'zolari bilan o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar, ularning mazmuni, g'oya va yo'nalishlari shaxsning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHaxsning faoliyati, ijtimoiy borliqqa munosabati, hayotiy yondashuvlari, faolligi, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. SHunga ko'ra shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi va mahsuli hisoblanadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida hech qachon ijtimoiy munosabatlardan ajralgan holda yashay olmaydi. Ma'lumki, «faollik» tushunchasi ba'zi hollar, xususan shaxs va uning faoliyatini tadqiq etuvchi fan sohalarida faoliyat tushunchasi bilan qorishtirib yuboriladi. Masalan, «Psixologiya»ga oid lug'atda mazkur tushuncha «tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir, shu asosda faoliyat ko'rsatish bilan xarakterlanadi» - deyiladi. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'atida «Ijtimoiy faollik – ijtimoiy sub'ektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniyma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi», - deya ta'riflangan. «Politologiya»dan ensiklopedik lug'atda shaxs faolligi siyosiy faollik tarzida talqin etiladi. Ushbu lug'atda faollik shunday izohlanadi: «SHaxs faolligi ob'ektiv voqelikka bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Bu munosabat har bir shaxsning jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishi, o'zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi ijtimoiy munosabatlarda qanchalik erkin ishtirok etsa, bu uning siyosiy faolligining o'sishiga shunchalik ta'sir ko'rsatadi», – deyilgan. Faollik – «O'zbek tilining izohli lug'ati»da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik

ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik deb ta'riflanadi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan mazkur izoh mohiyatan e'tiborlidir. Faol (lot. «activus» so'zidan olingan bo'lib), biror ishga g'ayrat bilan kirishadigan, astoydil ishlaydigan, ishchan, aktiv deb izohlanadi. Pedagogika ensiklopediyasi [66] da esa ijtimoiy faollik – 1. ijtimoiy sub'ektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniyma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha. 2. Sub'ektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma'lum ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shaxs faolligini shunday izohlash mumkin: ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha. Ijtimoiy faollik umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon mazmuni ustida ishlash va tarbiyaviy jarayon sub'ektlarining o'zligini namoyon qilishlarida katta imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda qabul qilingan 187-sonli «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati ustuvor o'rin egallamoqda. Mazkur tayanch kompetensiyalar: kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasidan iborat bo'lib, ulardan ayniqsa: o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi o'quvchilardan ham o'qituvchilardan ham ijtimoiy faollik ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O 'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o 'rni va ularnig turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o' zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).



5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).
6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 2).
7. Samarova, S. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern European Scientific Journal, (6).



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HARAKATLI O'YINLAR ORQALI
JISMONIY RIVOJLANTIRISH**

Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li
Andijon davlat univeristeti

Annotatsiya: Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o'yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib bormoqda.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, tarbiya, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxs, jismoniy rivojlanish

Аннотация: окружающая среда, окружающая детей, меняется. Компьютерные игры пришли на смену обычным, простым играм. Приоритетным становится умственное, эстетическое развитие ребенка. Не отрицая их значимости, следует сказать, что времени ребенка на подвижные игры

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, гуманность, физическое воспитание, личность, физическое развитие

Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish bolani tarbiyalash jarayonining asosi hisoblanadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy ta'sir o'tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o'yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib bormoqda. O'yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o'yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va o'tirib o'ynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o'z salbiy aksini topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq.

Ilk go'daklikning jiddiy xususiyati bolaning salomatligi, jismoniy rivojlanish holatining o'zaro aloqasi va bir-biriga bog'liqligidir.

Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari mazmuni, shakli, vositalari hamda usuliyatini yangilash ishning predmeti hisobida amalga oshiriladi. Shu predmetni qo'lash jarayonida quyidagi farazni ilgari surish maqsadga muvofiqdir, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash haqidagi taxminlarga asoslanadi. Shuningdek, bolalar jismoniy tarbiyasidagi bu yo'nalishni amalga oshirish an'anaviy vositalar, xususan, harakatli o'yinlardan ham bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish maqsadida foydalanish ta'sirini jiddiy yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo'llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlar bobida musobaqalashar ekanlar, o'z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo'ladilar. Jismoniy rivojlanishdan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, jur'at kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar o'zlarining harakatiga bo'lgan ulkan ehtiyojlarini, odatda, o'yinlar vositasida qondirishga urinadilar. Ular uchun o'yin – birinchi navbatda, faoliyat, harakat. Harakatli o'yinlar chog'ida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va mustaqillik, ishonch va qat'iyat kabi sifatleri rivojlanadi.

Har xil o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mustaqil harakatli o'yinlar juda foydali. Bolalarni ikkita, uchtdan guruhlash mumkin. Bolaning harakatlari odatda o'yinchoq turlari bilan belgilanadi, masalan, bayroqchalar, halqalar bilan yugurish, mashinalarni yurgizish, koptoklarni dumalatish, otish, ilib olish kerak.

Bolalar bunday o'yinchoqlar bilan qiziqib shug'ullanadilar. Biror mustaqil o'yinlarda bolalar darhol faollik va tashabbuskorlikni namoyon eta olmaydilar, ularning harakatlari bir xil va cheklangan. Lekin kattalarning topshirig'ini bajarish bilan bog'liq o'yinlarda bolalarning harakatlari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, ular harakatlarni bir necha bor takrorlab, harakat ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, chaqqonlik, epchillikni rivojlantiradilar. Bolalar hatto o'zlari o'yin bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlarida ham ularga rahbarlik qilib turish juda muhim. Ulardan ayrimlarining o'yinini murakkablashtirish, boshqalariga boshlagan ishini oxiriga etkazishini o'rgatish, uchinchisi agar jimgina o'ynayotgan bo'lsa, gaplashib turish maqsadga muvofiq.

Demak, maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlari o'tkazilgan tajribalar orqali aniqlandi va nazariy jihatdan asoslab berildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarni qo'llash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy

tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati" T. O'zDJTI nashriyot. 2005 y.
2. Дьяченко В.К. "Диалоги об образовательных технологиях". М. Школьные технологии, 2000 г.
3. Железняк Ю.Д., Петров П.К. "Основы научно методической деятельности в физической культуре и спорте". Учеб. пособие для студ. ВУЗов. М. Академия, 2002 г.
4. <http://www.satat.uz>
5. [http:// www.ta'lim.uz](http://www.ta'lim.uz)
6. [http:// www.search.re.uz](http://www.search.re.uz) - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
7. <http://www.pedagog.uz>

**PROSTATA BEZI XAVFSIZ GIPERPLAZIYASIDA INFRAVEZIKAL
OBSTRUKTSIYANING STATIK VA DINAMIK KOMPONENTLARI, AR
TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

Xo'jamberdiyev O'tkirbek Egamberdi o'g'li

xojamberdiyevotkirbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada benign prostata giperplaziyasining (PBXG) infravezikal obstruksiyasini kechirishdagi ikki asosiy mexanizm — statik (prostatik gipoplaziya to'qimalarining uretra siqilishi) va dinamik (alpha-adrenergik retseptorlar hiperaktivligi) — yoritilgan. Klinik penular PBXG simptomatologiyasi boshlanishidan tusiq (obstruktiv) va ta'sirlanish (irritativ) guruhlarni ajratadi, ularning detruzor dekompensatsiyasiga, qoldiq siydik to'planishiga va yuqori siydik yo'llarining o'zgarishlariga olib kelishi aniqlandi. Klinik tasnif tasvirlangan — statik va dinamik o'zgarishlarning PBXG patofiziologiyasi, bosqichlari va murakkab ko'rinishlari tahlil qilindi. Uretraning strikturasi, neyrogen pufak va boshqa kasalliklar bilan differensial diagnostika masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, maqola AR texnologiyasining PBXG profilaktikasi va diagnostikasida pedagogik platforma sifatida samarali joriy etilishi uchun nazariy asos yaratadi, ular orqali infravezikal obstruksiyaning mexanik va mexanizm tahlilini interfaol tarzda o'rgatish mumkinligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: infravezikal obstruksiya, PBXG, statik component, dinamik component, detruzor dekompensatsiyasi, simptomatologiya, Augmented Reality (AR) ta'limi

PBXG da infravezikal obstruksiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi ikki component bilan belgilanadi: statik - Prostata bezining giperplastik to'qimalari tomonidan siydik yo'llarining mexanik siqilishi natijasida va dinamik - siydik pufagidagi alfa adrenergik retseptorlarning giperaktivligi tufayli. bo'yin, prostata uretrasi va Prostata bezi. Shu munosabat bilan, PBXG klinik ko'rinishlarining murakkab genezasiga qaramay, bemorning shikoyatlarini tahlil qilishda siydik to'planishi (obstruktiv simptomlar) va siydik pufagining bo'shashishi (ta'sirlanish xususiyati belgilari) fazasini tavsiflovchi 2 guruh belgilarini ajratish.

PBXG ning simptomlari tusik (**obstruktiv**) va ta'sirlanish (**irritativ**) guruhlarga bo'linadi. Tusiq simptomlari uretraning tusilishi hisobiga kelib chiqadi.

obstruktiv belgilar

- siydik oqimining pasayganligi;
- tomchilab sachiratib siyish;
- kuchanib siyish;

- qoldik siydik qolish xissi;
- siyishning boshida zo'riqish qiyinalish;
 - qovuqni to'la bushanmaslik xissi.
 - siydik tutilish.

irritativ belgilar

- Nikturiya, pollaknutriya, nokturiya
Siyishga zudlik shoshilib qolish yoki qistab qolishi.

- Siydikni tutib tura olmaslik va boshqalar.
Og'riqli siyish ba'zida.

Bu simptomlar PBXG ning boshlanish bosqichlaridayoq uchraydi.


Uretra tusilishining davom etishi detruzorning dekompensatsiyasini keltirib chikaradi va qovuqda qoldik siydik paydo buladi. Qoldik siydik bakterianing va siydik yo'llari infeksiyasining rivojlanishi uchun qulay muxit bo'lib hisoblanadi.

Siydikning dimlanib kolishi va koldik siydikning ko'payishi natijasida yukori siydik yo'llarida uzgarishlar kelib chiqadi (gidrouretra, gidronefroz). Bemorlar kovugida toshlar paydo buladi, qovuk bo'yinchasidagi varikoz kengaygan qon tomirlar yorilishidan mikro va makrogematuriya kuzatiladi. PBXG bulgan 10% kam bemorlarda o'tkir yoki surunkali siydik tutilishi va buyrak yetishmovchiligi rivojlanadi.

Utkir siydik tutilishi arok ichilgandan keyin sovukkotganda qovuk siydik bilan tulib ketganda ba'zi dorilar kabul kilingandan keyin birdaniga kuzatilishi mumkin.

Ba'zi bemorlarda surunkali siydik tutilishi sharoitida buyrak yetishmovchiligi (chankash, teri katlamlarining kurishi, terida kichish va boshkalar) belgilari kuzatiladi.

Prostata xavfsiz giperplaziya asta-sekin zo'rayuvchi kasallik bo'lib, klinik ko'rinishi to'lqinsimon kechishi bilan xarakterlanadi, vaqti- vaqtda simptomatik og'irlashish, stabillashish yoki tuzalish bilan kuzatilishi mumkin. Klinik ko'rinishining xususiyati giperplaziya tugunlarining o'lchamlari o'zgarishiga va konfiguratsiyasiga, ikkilamchi turg'unlik paydo bo'lishiga, infeksiya qo'shilishiga bog'liq (1-rasmga qarang). Uzluksiz chiziq-adenomaning o'sishi, nuqtali chiziq - simptomlari.




Siydik chiqarishning buzilishi bilan kechadigan turli kasalliklar haqida ham eslash kerak: uretraning strikturasi, neyrogen siydik pufagi. Zamonaviy usullar PBHGni tashxislash, u olib kelgan siydik yo'llarining disfunktsiyasini baholash, kasallikning asoratlari aniqlash va shuning uchun davolash taktikasini aniqlash imkonini beradi. Prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi (adenoma) klinik ko'rinishining jiddiyligi faqat prostata bezining hajmi bilan emas, balki uning konfiguratsiyasi bilan ham bog'liqligi isbotlangan. Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi makroskopik jihatdan bo'lakcha tuzilishga ega. Odatda, uning tugunlari o'ng va chap bo'lakni hosil qiladi, shu bilan birga ulardan bittasi boshqasiga qaraganda aniqroq ko'rinish turishi mumkin. Ularning orqasida o'rta bo'lakcha yopishib turadi. O'ng va chap bo'laklarida tugunlar joylashgan adenoma eng ko'p tarqalgan.

Bu shakli, odatda, qovuqdan tashqariga o'sishi bilan, nisbatan uzoq va yaxshi klinik kechishi bilan xarakterlanadi. Paypaslab tekshirganda yon bo'laklari bilan simmetrik joylashgan kattalashgan prostata bezi aniqlanadi. O'rta bo'lagingining rivojlanishi urug' chiqaruvchi yo'llar o'rtasida qovuq bo'yinchasi orqasida joylashgan prostata bezining kichkina joyidan kelib chiqadi, shu bilan birga ko'pincha u qovuq tomonga kengayishga moyil. Bunda kattalashgan tugunlar qovuq tubini ko'taradi, deformatsiya qiladi va uning bo'ynini siljitadi, bu yaqqol obstruksiya va yuqori siydik yo'llarida patologik o'zgarishlar rivojlanishi bilan kuzatiladi va bu kasallikning yomon kechishiga sabab bo'ladi. Bu shakldagi adenoma 40–60 yoshdagi bemorlarda ko'p (80 % hollarda) uchraydi. Bunda paypaslash, ayniqsa o'rta bo'lagi alohida kattalashganda, prostata bezining o'lchamlarini aniq aniqlashga imkon

bermaydi (**2-rasmga qarang**). Prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi (adenoma) tugunlarining ko'proq o'sishi, bir tomondan prostata bezidagi birlamchi giperplastik o'zgarishlarning joylashishiga, ikkinchi tomondan esa prostata bezi to'qimasining kompozitsiyasiga bog'liq. Agar prostata bezining atrofidagi to'qima yuqori elastikligi bilan ajralib tursa, unda a'zoning kattalashishi uretraga bosilish (kompressiya) yo'qligida yoki kamligida osongina sodir bo'ladi.

Prostata bezi kapsulasidagi sklerotik o'zgarish, kalsinatsiya o'choqlari, rigidlik tugunlarning uretra hamda qovuq bo'yinchasi tomonga o'sishiga va infravezikal obstruksiyaning tezlik bilan rivojlanishiga yordam qilishi mumkin. Shunday qilib, giperplaziya tugunlarining egallagan shakli va holati kasallikning kechish xususiyatlarini va uning simptomlarini belgilaydi. Adenomaning zo'rayishi siydik yo'llarining hamma bo'limlarida o'zgarish paydo qilishi mumkin. Siydik chiqarish kanali, uning prostata qismining qisilishi deformatsiya va uzayish bilan namoyon bo'ladi. Qovuq bo'yinchasi ko'tariladi va deformatsiyalanadi, uning bo'shlig'i yoriqsimon bo'ladi. Natijada siydik chiqarish kanalining tabiiy egriligi ko'payadi, yonbosh bo'laklarining notekis rivojlanishida esa uretraning ko'ndalang tomonga qiyshayishi ham ro'y beradi, buning natijasida u egri-bugri ko'rinishni oladi.

Qovuq bo'yinchasining ochilib turishi va uretral-sfinkter mexanizmining qoniqarsizligi siydikni tutolmaslik bilan klinik namoyon bo'ladi. Qovuq ham jiddiy o'zgarishga uchraydi (3-rasmga qarang). Prostata bezi xavfsiz giperplaziyasida (adenoma) tashxislash dasturi o'z oldiga quyidagi maqsadni qo'yadi:



Bemorning holatini birlamchi baholash uchun majburiy usullar, tavsiya qilinadigan va fakultativ tekshirish usullari belgilangan. Birlamchi tekshirganda tavsiya qilinmaydigan tashxislash usullari alohida ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **StatPearls.** *Benign prostatic hyperplasia.* Beta-adrenergik retseptorlar va obstruktsiyaning statik hamda dinamik mexanizmlari ta'kidlanadi [Cleveland Clinic+4Наццентр Биотехинфо+4PMC+4](#).
2. **Cleveland Clinic.** *Benign Prostatic Hyperplasia: Evaluation and Medical Management in Primary Care.* Dinamik komponent — alpha-1 retseptorlarning prostata stroma va pufak bo'yni to'qimalariga ta'siri haqida ma'lumot [Cleveland Clinic](#).
3. **PMC NCBI.** *Pathophysiology of Benign Prostatic Hyperplasia: Insights From...* Statiya va dinamik mexanizmlar haqida patofiziologik izohlar [PMC](#).
4. **AUA Guidelines.** *Benign Prostatic Hyperplasia (BPH) Guideline.* Obstruktsiyaning komponentlari va klinik diagnostika prinsiplari qayd etilgan [Наццентр Биотехинфо+2auanet.org+2PMC+2](#).
5. **Wiley & ScienceDirect.** "Potential Role of α 1-Adrenoceptors in LUTS" va "Alpha-blockade in the Treatment of Symptomatic BPH." Alfablokatorlarning dinamik obstruktsiyaga ta'siri to'g'risida tahlilla

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI****Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li**

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti
bosh mutaxassisi

Annotatsiya: O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqolada ushbu maqsadni amalga oshirish usullari, imkoniyatlari hamda sohaga oid iqtisodiy islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, tadbirkorlik, iqtisodiyot.

Аннотация: одной из основных целей построения социально ориентированной рыночной экономики в Узбекистане является приоритетное развитие форм малого бизнеса и частного предпринимательства в стране. В данной статье речь пойдет о методах, возможностях реализации этой цели, а также об экономических реформах отрасли.

Ключевые слова: рыночная экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, экономико-социальные реформы, предпринимательство, экономика.

Annotation: one of the main goals of establishing a socially oriented market economy in Uzbekistan is the priority development of small business and private forms of entrepreneurship in the country. This article will talk about the methods, opportunities for the implementation of this goal, as well as economic reforms related to the industry.

Keywords: market economy, small business, private entrepreneurship, economic-social reform, entrepreneurship, economy.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni, xususan, bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida,

ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llabquvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ochiq tashqi siyosatli, barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini qurish hisoblanadi. Respublikada

bozor qayta o'zgartirishlari qat'iy va izchil amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham, Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlar yaratilgan:

1. Kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

2. Deyarli barcha tarmoqdagi kichik korxonalar kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadigan yagona soliq to'lovi stavkasi, realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5% ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari uchun yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi stavkasi 15% ni tashkil etadi.

